

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES VA
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI**

TMI Iqtisodiy xavfsizlik

Kafedra dotsenti, PhD A. T. Umirov

TMI bank ishi fakulteti BIA-76 guruh talabasi

Xushboqova Sevinch

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, jahon mamlakatlari aholisi iqtisodiyot tarmoqlarining o'zgarishi hamda globallashuv sharoitida mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda iqtisodiyotning raqamlashtirilganligi darajasi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, biznes, tadbirkorlik, globallashuv sharoiti, raqamli tadbirkorlik.

Kirish: Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Hozirgi kunda deyarli barcha sohalar raqamlashtirish tizimidadir. Shu bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyot sharoitida “raqamli tadbirkorlik” ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi.

Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar qolaversa davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar hamda jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada esa, tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

Asosiy qism. Ayni damda dunyodagi yetakchi davlatlarda aholi

daromadlarining o'sishi birinchi o'rinda tadbirkorlikda innovatsion jarayonlarning to'g'ri tashkil etilishi, ya'ni "raqamli tadbirkorlikni" doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgani bilan bevosita bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri bu jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir. Jahon amaliyotini o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish, "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini rivojlantirish zarur.

"Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari aholisi iqtisodiyot tarmoqlarining o'zgarishi va ushbu jarayonning raqamlashuvi, hamma sohalariga sun'iy intellektning joriy qilinishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan o'tqazmoqda. 2022 yilga kelib dunyo YaIMning qariyb chorak qismi raqamli sektorga to'g'ri kelishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zarurati yanada kuchayadi. Bu vaqtingiz tig'iz vaqtida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo'natishdan ko'ra kengroq imkoniyatlar bo'lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi. Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim qilayotgan iqtisodiy faoliyat bo'lib, bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi."¹ Ko'rib turganimizdek yuqoridagi fikrlar sekinlik bilan hayotimizda ommalashayapti.

"Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat ob'yektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar muhim resurs sanalsa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan, shuningdek uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi".² Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat ob'ektlari ish

¹ Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. -T.: TMI, "Iqtisod-Moliya", 2019

² Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba. 2022.

faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni riojlantirish va faoliyat shaffofligini ta'minlash qolaversa, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini yaratadi. Xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga qaraganda, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi va shu bilan bir qatorda xufiyona iqtisodiyotga ham barham beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlik sohasidagi rivojlantirish muammolari, internet texnologiyalari va yangi raqamli platformalar o'rtasida paytdagi muvofiqlikni ta'minlash lozimligi, xususan biznes modellarining yangilanishi va tadbirkorlikda raqamli yondashuvlarni hisobga olishimizni taklif etadi. Boshqa muhim muammolar esa, ma'lumotlarning maxfiylik va ma'muriy jarayonini ta'minlash, raqamli xavfsizlik muammolari, xalqaro bozorlarda integratsiya va avtomatlashtirilgan tadbirkorlik jarayonlarini rivojlantirishni tashkil etadi. Ushbu muammolar bilan birlashgan holda, biznes va tadbirkorlik sohasidagi raqamli iqtisodiyot rivojlanishining yuksak potentsiali mavjud, ammo ularni hal qilish va muvofiqlikka aylanish uchun dastlabki bosqichlarda samaradorlik va innovatsiyalar xavfsizligi kabi strategiyalarga e'tibor berish zarur. Biznes va tadbirkorlik sohasidagi raqamli iqtisodiyot rivojlantirish muammolari, innovatsiyalar va strategik hamkorliklar yordamida hal qilinadi, shuningdek, mutaxassislar va tadqiqotchilarning integratsiyasi va ta'lim muassasalarining yangilashlari katta ahamiyatga ega.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab yangi servislar va biznes modellarniyaratish uchun IT vositalaridan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo'lgan kompaniyalarga kuchli raqobat yaratmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. -T.: TMI, "Iqtisod-Moliya", 2019.
2. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollari. // Ilmiy-amaliy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. 2020.
3. Tolametova Z.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. –Toshkent: "Fan va texnologiya", 2017.
4. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba. 2022.